



21.01.2022 даги

Андижон вилояти Сув таъминоти МЧЖ Пахтаобод туман филиали ва Пахтаобод туман ХТБ ўртасида
115830,00 сўм умумий суммага тузилган 10 - сонли шартномага

ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ*

Боб	075			сўмда
Шахсий газна ҳисобварақ	100022860032327096100075012			
2022 й. ойлар номи.	Харажатлар тури** (709 6100 075)			Жами
	4224000			
Январь	38 610,00			38 610,00
Февраль	38 610,00			38 610,00
Март	38 610,00			38 610,00
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
Жами йил бўйича	115 830,00			115 830,00

Жами 115830,00 сўм

Бир юз ўн беш минг саккиз юз ўттиз сўм 00 тийин

сумма сўз билан

Юқоридаги кўрсатилган суммадан _____ сўм ёки 100,00%*** шартноманинг умумий суммасидан
100% ***2022 йил _____ ойида тўланиши лозим.

(*) — бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан ғазначилик бўлинмасига икки нусхада тақдим этилади;

(**) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(***) — Юқоридаги кўрсатилган суммадан ойна _____ % жорий ойна _____ санасигача хар ойда олдиндан тўланиши лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар кўрсатиш, алоқа хизматлари ва қонун ҳужжатларида назарда тутилган хар ой доимий равишда товарлар (ишлар, хизматлар) етказиб бериш шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш ҳолларида тўлдирилади).

Буюртмачи раҳбари



Буюртмачи раҳбарнинг бухгалтери

Ғазначилик бўлинмасининг
ҳодими қабул қилди

(имзо)

« _____ » _____ 20 _____ й.

(имзо)

Усмонов Ахмадилло

Ф.И.Ш.

(имзо)

Камбаров Абдулбоки

Ф.И.Ш.

Буюртмачи ходими
қабул қилди

(имзо)

« _____ » _____ 20 _____ й.

**Ta'rif (QQS va Maxsus ustama haq bilan)
Suv 1 m3. 1430 so'm**

**10-sonli shartnoma
II guruh Iste'molchilarga ichimlik va oqova suvi xizmatlarini
ko'rsatish uchun**

21 yanvar 2022 yil

Paxtaobod tumani

Ushbu shartnoma Suv ta'minoti korxonasi, keyingi o'rinlarda "Ta'minotchi" deb yuritiladi. Nizom asosida faoliyat yurituvchi Andijon suv ta'minoti MCHJ Paxtaobod tuman filiali A.Ataqo'ziyev shaxsida, bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb yuritiluvchi Paxtaobod tuman xalq ta'limi bo'limi Nizom asosida ish olib boruvchi direktor ish olib boruvchi ikkinchi tomondan, quyidagilar haqida tuzildi:

I. Shartnoma predmeti

1.1. 2022 yil uchun suv etkazish hajmi uchun tuzilgan shartnomaga muvofiq byudjet tashkilotlari (bundan buyon matinda II guruh iste'molchilari deb yuritiladi) uchun suv yetkazish narx bo'yicha 1 m3 1430 so'mni tashkil etadi:

1m3 ichimlik suv uchun 1200 so'm (+QQS 15% 180 so'm) (maxsus ustama xaq esa 50 so'm) ni tashkil qilmoqda

Shu tariqa shartnomaning umumiy qiymati **115.830** so'mni tashkil qildi. (bir yuz o'n besh ming sakkiz yuz o'ttiz) so'm.

Shu jumladan, byudjet mablag'laridan **115.830** so'm to'lanishi ko'zda tutilgan.

II guruh iste'molchilari Qoidalarda belgilangan tarzda "Ta'minotchi" tomonidan taqdim qilingan hisob varaq-fakturalarga asosan, Moliya vazirligi G'aznachiligi orqali suv ta'minoti va oqova suvini chiqarish uchun o'tkazilgan mablag'lar orqali amalga oshiriladi.

2. «Ta'minotchi» «Iste'molchi» ni O'zDSt 950:2011 «Ichimlik suvi, gigienik talablar va sifat nazorati» amaldagi standartiga muvofiq ravishda barqaror ta'minlaydi. Ushbu standart nazorat Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati tomonidan amalga oshirilib, suv quvurlari ta'rif qiymatida (QQS ni hisobga olgan holda) xo'jalik-maishiy va ishlab chiqarish-texnologik ehtiyojlarga yo'naltiradi.

1.3. «Iste'molchi» o'rnatilgan muddatlar ichida "Ta'minotchi"ga ko'rsatilgan suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlari uchun to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.4. Taraflar ushbu shartnomaning suv ta'minoti va oqova suvini chiqarish bo'yicha shartlarini bajarish, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyuldagi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish Qoidalariga" (keyinchlik matnda – Qoidalar deb yuritiladi), hamda Andijon viloyat xokimining 2019 yil 16 martdagi 137-Q sonli qaroriga, muvofiq tarifga, 1 m3 suv uchun 50 so'm, 1 m3 oqova suv xizmati uchun 50 so'm mahsus ustama haq joriy etilgan hamda "Ta'minotchi" tomonidan taqdim qilingan kommunal suv yetkazib berish va oqova suv chiqarish tizimiga ulanish uchun ruxsat etuvchi hujjatlarga rioya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladilar.

1.5. "Iste'molchi" ushbu shartnomaga, uning tasarrufidagi barcha ob'ektlarining (filial va sub-iste'molchilarning) dislokatsiyasini, ularning suvda ehtiyoji va suv tizimiga ulanishdagi ehtiyojini, yetkazib berishning miqdori va diametrlarini ko'rsatgan holda, kadastr xujjat nusxasini taqdim qiladi, "Ta'minotchi"ni o'z vaqtida suv o'tkazish-oqova xo'jaligidagi, bank ma'lumotlari va yuridik manzilidagi o'zgarishlar haqida xabardor qiladi.

II. Umumiy qoidalar

2.1. Ichimlik suvi bilan ekinlarni sug'orish, hovlilar, yo'lakchalariga o'rnatilgan vaqtdan tashqari suv sepish, hamda, ichimlik suvidan avtomashinalarni yuvish uchun foydalanish qat'iyan man etiladi.

2.2. Suv ta'minoti tizimlaridagi ichimlik suvi iste'molchi (sub-iste'molchi) larning xo'jalik-iste'mol va kommunal-maishiy ehtiyojlari, yong'inlarni o'chirish, shuningdek, ichimlik suvi talab etiladigan texnologik va ishlab chiqarish jarayonlari uchun mo'ljallangan.

"Ta'minotchi"ning texnik imkoniyatlari mavjud bo'lgan holatlarda, ixtisoslashgan iste'molchilarga ichimlik suvi markaziy kommunal suv ta'minoti tizimlaridan yetkazib beriladi.

2.3. Asosiy iste'molchining tarmorqlaridan suv olib, oqova suvlarini "Iste'molchi"ning kanalizatsion tarmoqlariga o'tuvchi sub-iste'molchilar suv ta'minoti va oqova suvini chiqarish shartnomasini "Iste'molchi" bilan tasdiqlangan "Qoidalar"ga muvofiq tuzadilar.

2.4. Suvni hisobga olish asboblari O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agnetligi tomonidan tekshirilgan va tamg'alan bo'lishi va suv o'lchash tarmog'i suv-kommunal xo'jaligi tashkiloti tomonidan tamg'alanishi lozim. Shuningdek ichimlik suvini xisobga olish uskunasi yechish, qiyoslashdan o'tkazish va o'rnatish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2019 yil 20 avgustdagi № 698-sonli qaroriga muvofiq yuritiladi.

2.5. "Iste'molchi"ga o'rnatilishi lozim bo'lgan suv o'lchash qurilmasining shartli o'tkazgichining diametri (kalibri) hisob-kitob asosida aniqlanadi, ob'ektning maksimal suv iste'moli va minimal suv iste'moliga tekshiriladi va "Iste'molchi" bilan kelishiladi. Hisoblash qurilmasi uchun o'rnatilgan minimal iste'mol miqdoridan kam miqdorda suv iste'mol qilinganda, «Ta'minotchi» suv o'lchash tarmog'ini qaytadan qurilma bilan ta'minlash uchun ko'rsatma beradi, ushbu ko'rsatma bajarilmaganda, hisoblash qurilmasining ko'rsatkichlari qabul qilinmaydi va hisoblash Qoidalarida o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

2.6. Suv o'tkazish-kanalizatsiya xo'jaligining rekonstruksiya, hisoblash qurilmalarini ishga tushirish, hisoblash qurilmalarini almashtirish, yangi sub-iste'molchilarining ulanishi Iste'molchi tomonidan faqat "Ta'minotchi" tarafidan tasdiqlangan texnik shartlar va loyiha asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lib, ular "Iste'molchining" so'rovnomasi asosida, barcha tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda beriladi. "Ta'minotchi"dan olingan texnik shartlar asosida, "Iste'molchi" buyurtmasiga asosan, amaldagi me'yor, qoidalar va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida loyihalashtirish tashkiloti tomonidan ulanish loyihasi ishlab chiqiladi.

2.7. Qurilgan ulamalarning ishga tushirilishi "Ta'minotchi" tomonidan, "Iste'molchi" va qurilish tashkilot vakillarining ishtirokida amalga oshiriladi.

2.8. Agar suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlari uchun narxlarida o'zgarish vujudga kelsa, to'lov yangi tariflar asosida amalga oshiriladi.

2.9. Kommunal suv ta'minoti va suv chiqarish qismlarining texnik holati uchun ekspluatatsion mas'uliyat chegarasi (suv va oqova tizimlari, qurilmalar va ularning moslamalari) suv-kommunal xo'jaliklari va iste'molchilar orasida, xususi uy-joy mulkdorlari shirkatlari orasida quyidagilardan iborat:

a) suv iste'moli uchun uzatish tarmog'ining kiritish qurilmasi bo'lib, u kommunal tarmoqdan o'chiriladi. Suv quvurini, shu jumladan uzatish qurilmasini ishga tushirish iste'molchining ichki suv uzatish tizimining bir qismidir;

b) oqova tizimi uchun magistral oqova tizimiga ulanish nuqtasidagi suv chiqarish qudug'i bo'lib, u "Iste'molchi"ning ichki oqova tizimining bir qismidir. Agar chiqarish oqova qudug'i magistral oqova tarmog'ida joylashgan bo'lsa, ko'rsatilgan quduq suv-kommunal xo'jaligining bir qismi bo'ladi, uzatish tarmog'ining ekspluatatsiyasi esa "Iste'molchi"ning kuchi va mablag'i hisobiga amalga oshiriladi.

III. Taraflarning huquq va majburiyatlari

3.1. Iste'molchining huquqlari:

a) "Ta'minotchi"dan, u bilan tuzilgan shartnoma asosida, ichimlik suv va oqova suvni chiqarish xizmatlarining uzluksiz amalga oshirilishini, o'z hayoti va sog'lig'iga, mulkiga xavf tug'dirmaydigan darajadagi sifat va miqdorda ichimlik suv berilishini talab qilish;

b) "Iste'molchi" hisobidan hisoblash qurilmasini o'rnatish.

v) tegishli sifat darajasidagi ichimlik suv va oqova suv tarmoqlariga xizmat ko'rsatish talablarini bajarmaganligi uchun "Ta'minotchi"dan qonunchilikda va shartnoma shartlarida ko'rsatilgan miqdorda jarima (penya)lar to'lashni talab qilish;

g) "Ta'minotchi"ni shartnomani bekor qilish to'g'risida, uning bekor qilinishidan kamida 15 kun oldin ogohlantirgan holda va ushbu muddatda suv ta'minoti yoki oqova suvni chiqarish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni to'liq amalga oshirgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish;

d) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlar va ma'lumotnomani (shaxsan yoki o'z vakili orqali) bepul olish;

y) "Ta'minotchi"dan ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari hajmi va sifati, ularni amalga oshirish shartlari, to'lovlar tarifi va tartiblarining o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni bepul olish;

yo) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilmayotganligi yoki ularning past sifatda ekanligi to'g'risidagi dalolatnoma taqdim etilgandan keyin 18 soat mobaynida ta'minotchidan nosozlik va kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish;

j) Davlat sanitariya epidemiologiya markazi organlari tomonidan tasdiqlangan amaldagi standartlarga javob beradigan sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlanmaganlik (sifatsiz ichimlik suv mavjudligi aniqlangan davrdan u tegishli darajaga olib kelingan vaqt) uchun qayta hisob-kitob amalga oshirilishini talab qilish.

3.2. Iste'molchining majburiyatlari:

a) shartnoma shartlarini bajarish;

b) o'zining hududida joylashgan va ularga tegishli bo'lgan kommunal suv va oqova tarmoqlari va qurilmalarining muvofiq ravishda qo'riqlanishini, ularga suv toshishi yoki shikastlanishiga, muzlab qolishiga yo'l qo'ymaslik, quduq qopqoqlarini qor va muzdan tozalash, "Ta'minotchi" tomonidan o'rnatilgan tamg'alarining butligini nazorat qilish, quduqlardan yuza oqovasi mavjudligini ta'minlash, yong'ingaqarshi gidrantlarga o'tish yo'llarini bekimaslik, ko'rsatilgan yong'inga qarshi gidrantlarning ko'rsatkichlari yaxshi ishlashini nazorat qilish;

v) "Iste'molchi" hududida yoki uning tasarrufidagi suv quvuri, oqova tarmoqlari va qurilmalarning ustiga turli buyum va materiallarning yig'ilishiga hamda suv quvuri, oqova tarmoqlari va qurilmalarining ustida inshootlar qurilmasligini, shu jumladan, tashqi (ko'cha va kvartal ichidagi) suv quvuri, oqova tarmoqlari va qurilmalarining ustidan inshootlar qurilishiga yo'l qo'ymaslik.

g) kommunal suv quvuri, oqova tarmoqlari va qurilmalarining tranzit nuqtalarida har qanday shikastlanish, buzilishlar haqida zudlik bilan "Ta'minotchi"ni xabardor qilish;

d) suvni hisobga olish priborlarida yaqqol ko'rinib turgan nosozliklar, shuningdek tamg'ani butligiga shikast yetgan yoki uzib tashlanganligi to'g'risidagi holat aniqlanganda hamda hisobga olinmagan yong'inga qarshi gidrantlar mavjudligi haqida darhol yozma ravishda yoki aloqa tarmoqlari (faks, elektron pochta) orqali "Ta'minotchi"ga xabar berish;

ye) "Ta'minotchi" bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq majburiyatlariga rioya qilish, har oyning 23 dan 25 gacha sanasida ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va aniq yechib olish va ushbu ko'rsatkichlarni "Ta'minotchiga" joriy oyning oxirgi kunidan kechikmagan holda ma'lumotlarni taqdim qilish va to'lovni amalga oshirish;

yo) shartnomada belgilangan miqdordan ortiq hajmda suvning ortiq sarf qilinishiga va oqova suvlarining me'yordan ortiq chiqarilishiga yo'l qo'ymaslik;

j) "Ta'minotchi"ni o'z vaqtida suv o'tkazish-oqova xo'jaligidagi, bank ma'lumotlari va yuridik manzilidagi o'zgarishlar haqida xabardor qilish;

i) "Ta'minotchi"ga tegishli bo'lgan yoki uning hududida joylashgan suv va oqova tarmoqlari, qurima va moslamalarning muvofiq texnik ekspluatatsiyasini ta'minlash;

y) ishlab chiqarish oqova suvlarining oldindan tozalash ishlarini qilib borish va ularning ifloslanish kontsentratsiyasini me'yordagi ko'rsatkichlarga o'tib ketmasligini ta'minlash;

k) oqova tarmog'iga tushiriluvchi suvlarning sifatining monitoringini ta'minlash;

l) "Iste'molchi" hududida joylashgan suv o'lchash tarmog'i, kommunal suv o'tkazish va oqova tizimlarida har qanday ishlarning bajarilishiga begona shaxslarni qo'ymaslik;

m) jamoatsuvva kanalizatsiya tizimlarini ob'ektlariga shikast zarar etkazgan "Iste'molchi" darhol "Ta'minotchi"ga xabar berishi va etkazilgan zararni qoplash uchun "Ta'minotchi" texnik nazorati ostida o'z etkazilgan shikastlanishni bartaraf etish va behuda sarf qilingan suv narxini to'lashi shart.

3.3. Ta'minotchining huquqlari:

a) "Ta'minotchi"quyidagi hollarda, iste'molchini 5 kun avval xabardor qilgan holda, suv uzatishni va suv chiqarishni to'liq yoki qisman to'xtatish huquqiga ega;

b) "Iste'molchi" hududida joylashgan va uning tasarrufidagi suv uzatish va oqova tarmoqlari, moslama va qurilmalarining texnik holati qoniqarsiz holatda bo'lsa va "Iste'molchi" texnik foydalanish qoidalarini buzish natijalarini "Ta'minotchi"vakillari talabiga ko'ra bartaraf etamasa;

v) "Ta'minotchi"ning vakili iste'molchi hududida joylashgan va uning tasarrufidagi bo'lgan suv uzatish va oqova tarmoqlari, moslama va qurilmalarida ishlar olib borish, tamg'a o'rnatishga va boshqa ishlarda "Iste'molchi" tomonidan asossiz xalaqt berilgan taqdirda;

g) "Ta'minotchi" tomonidan rejali oldini olish ta'mirlash ishlarini, suv o'tkazish va oqova tarmoqlarida ishlar bajarilishida, "Iste'molchi" ularga ulangan bo'lsa, va yangi "Iste'molchi"larni ulash uchun ishlarni o'tkazishda;

d) "Iste'molchi"ning xizmat ko'rsatilishida va uning tasarrufidagi kommunal suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlariga o'zboshimcha sub-iste'molchilarning ulanib olganligi aniqlanganda;

ye) "Iste'molchi" o'rnatilgan muddatlarda to'lov hujjatlariga muvofiq to'lovni amalga oshirmaganda;

yo) "Ta'minotchi"ning roziligini olgan sub-ta'minotchilarning "Iste'molchi" tasarrufida bo'lgan kommunal suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlariga ulanishiga rad javobini berganda;

j) "Iste'molchi"lar tomonidan kommunal suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlarini ko'rsatish shartlariga rioya qilinmaganda;

z) energiya ta'minoti to'xtatilganda;

i) tabiiy ofatlarda;

y) avariyalarda;

k) yong'in chiqqan yerlarga suv yetkazish hajmini oshirish zaruriyati tug'ilganda.

3.4. "Ta'minotchi"ning majburiyatlari:

a) suv ta'minoti va suv chiqarish bo'yicha shartnoma shartlarini bajarish;

b) suv yetkazilishini uzluksiz ta'minlash;

v) tizimli ravishda davlat suv ta'minoti va kanalizatsiya tarmoqlari, iste'mol ob'ektlari va qurilmalariga ulangan suv ta'minoti va kanalizatsiya tarmoqlarining holatini va ishini tizimli nazorat qilishni amalga oshirish va ularni to'g'ri ishlashni tashkil etishda amaliy yordam ko'rsatish; byudjet bilan birgalikda "Iste'molchi"lar suvidan oqilona foydalanish va suvdan oqilona foydalanishni aniqlash, suvni etkazib berish va iste'mol qilishni qat'iy nazorat qilish va hisobga olish, sanoatga muvofiqligini muntazam ravishda nazorat qilish va ularga tenglashtirilgan suv iste'mol qilish cheklovlariga rioya qilishni nazorat qilish;

g) "Iste'molchi"larga individual hisoblash qurilmalarini o'z xisobidan o'rnatilgandan so'ng, o'rnatilgan tartib va muddatlarda ularning ishini tekshirish;

d) "Iste'molchi"lar suv quvur xo'jaligining tekshirishni (individual hisoblash qurilmasining yaxshi ishlayotganligini tekshirgan, ulardagi nazorat ko'rsatkichlarini olgan va tamg'alarining mavjudligi va butligini aniqlagan holda) bir oyda ko'pi bilan bir marta o'tkazish va muvofiq dalolatnomalarni tuzish;

ye) "Iste'molchi"ga, ushbu shartnomaning shartlarini bajarmagan hollarida, jarima ya'ni penya to'lovlarini amalga oshirish;

yo) suv ta'minoti va iste'moliga oid me'yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlarning qabul qilinganligi haqida "Iste'molchi"larni xabardor qilish;

j) suv yetkazish va suv chiqarish uchun xizmat haqi to'lovlarining tariflari oshganda, ular kuchga kirgan kundan 15 kun avval ommaviy axborot vositalari orqali ma'lumot berish;

z) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlar va ma'lumotnomani "Iste'molchi"ga bepul berish;

VI. Taraflarning javobgarligi

4.1. "Ta'minotchi" ushbu shartnomaga muvofiq majburiyatlarni bajarmaslikda yoki lozim darajada bajarilmagan hollarda kelib chiqqan zararni, "Iste'molchi" esa yetkazilgan haqiqiy zararining o'rmini qoplashi shart.

4.2. Iste'molchi quyidagilar uchun javobgardir:

a) suv hisoblash qurilmasidagi tamg'alar, aylanish chizig'i jo'mragi, gidrantlar va boshqa suv uzitish moslamalaridagi qismlarning uning hududida va tasarrufida bo'lgan tamg'alangan hisoblash qurilmalarining butunligi va saqlanishi uchun;

b) suv tarmoqlariga o'z boshimcha ulanib olish, sovuq suvni hisobga olish qurilmalarining qasddan buzilishiga yo'l qo'yish hamda suv hisoblash qurilmalaridagi ko'rsatkichlarni tashqaridan aralashgan holda o'zgartirish holatlari uchun;

v) qonunchilikda o'rnatilgan boshqa hollarda.

g) o'zboshimchalik bilan qurilgan inshootlar sababidan, tarmoqlardagi avariya bo'lgan xolatlarida;

d) kommunal drenaj tizmi mavjud bo'lsa "Iste'molchi" hududida joylashgan oqova tarmog'iga yomg'ir va erigan qor suvlarning tushishiga yo'l qo'ymaslik. Ushbu qoidabuzarlik aniqlanganda "Ta'minotchi" xodimi o'rnatilgan tartibda dalolatnoma tuzadi va ushbu dalolatnoma "Iste'molchi"ning mas'uliyat va javobgarlik chorasini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

4.3 "Ta'minotchi"quydagi hollarda javobgardir:

a) amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning talablariga muvofiq, uzatilayotgan suvning sifati va qonunchilikda va shartnoma shartlarida ko'zda tutilgan boshqa hollarda;

b) "Iste'molchi"larga suv ta'minotiga ulanish va suv chiqarish xizmatlarida foydalanish uchun zarur bo'lgan texnik shartlarning o'z vaqtida va ishonchli taqdim qilinishi uchun;

v) "Iste'molchi"ning hayoti, salomatligi va mol-mulkiga yetkazilgan zarar, ma'naviy zarar uchun qonunchilikda o'rnatilgan tartib va miqdorda, qoplash;

g) shartnoma shartlari va yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaslik;

d) qonunchilikda o'rnatilgan boshqa hollarda.

V. Suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlari uchun hisoblar va to'lovlarning tartibi

5.1. Kommunal suv ta'minoti tizimidan chiqarilgan (qabul qilingan) suvning hisobi hisoblash qurilmasi mavjud bo'lganda, hisoblash qurilmasining ko'rsatkichlariga muvofiq, amaldagi tariflar bo'yicha QQSni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

5.2. Oqova tizimiga kelib tushuvchi oqova suvining miqdori, suv tarmog'idan yetkazib beriladigan suv miqdoriga teng. Markazlashgan holda issiq suv ta'minoti mavjud bo'lgan hollarda, iste'mol qilinuvchi sovuq suv miqdoriga 2.0 koeffitsienti qo'llaniladi. "Iste'molchi"ning o'zida suv ta'minotining qurilmalari mavjud bo'lsa, oqova suvlarining miqdori ushbu suv qurilmalarining mahsuldorligiga (yoki o'rnatilgan va ro'yxatga olingan hisoblash qurilmalarining ko'rsatkichlariga) ko'paytiriladi. Ichki suv ta'minoti tizimi "Iste'molchi"ning shaxsiy avtonom manbasi bilan bog'liq bo'lmasligi lozim.

5.3. Ob'ekt egasi, avtonom suv ta'minoti (skvajina, ochiq suv havzasi, irrigatsiya tizimi)ga yoki markaziy kommunal oqova tizimidan boshqa oqova tashlash manbalariga ega bo'lgan holatlarda, "Ta'minotchi" bilan shartnoma tuzish uchun maxsus tabiiy suv ob'ektlaridan suv olish yoki chiqarish uchun qo'shimcha ruxsatnoma taqdim etishi lozim.

5.4. Suv ta'minotining xususiy avtonom manbai (artezianskvajinasi, quduq, ochiq suv havzasi, irrigatsiya tizimi va h.k.) mavjud bo'lganda kommunal kanalizatsiya tizimiga oqovalarni oqizish uchun to'lovlar, o'rnatilgan nasosning ishlab chiqarish quvvati yoki o'rnatilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan hisoblash asbobining ko'rsatkichlari asosida amalga oshiriladi. Iste'molchiga qarashli bo'lgan avtonom suv ta'minoti manbaining ichki tizimi markaziy suv ta'minoti tizimi bilan tutashmagan bo'lishi shart.

VI. Aloxida shartlar

6.1. Ob'ekt egasi o'zgarganda, "Iste'molchi" butun debitorlik qarzdorligini so'ngdirishi va "Ta'minotchi" bilan chiqib ketishdan kamida 7 kun oldin dalolatnomani tuzish va imzolashi zarur, "Iste'molchi" chiqib ketganidan so'ng, tamg'alar va hisoblash qurilmalarining butligi ob'ektning yangi egasi zimmasiga yuklatiladi.

6.2. "Iste'molchi"ning suv uzatish-oqova xo'jaligidagi barcha o'zgarishlar ta'minotchi tomonidan "Iste'molchi"ning xati kelib tushgan kundan boshlab hisobga olinadi.

6.3. Yetkazib berilgan yoki qabul qilingan ichimlik suvi xajmi quvurning o'tkazish qobiliyatidan kelib chiqib oyning kalendar kunlari hisobidan quyidagi formula asosida hisoblanadi:

bunda: $M - 0.60$ ga teng bo'lgan zulf in orqali suv sarfi koeffitsienti;

F – suyuqlik oqib o'tadigan quvur yoki teshik kesimi maydoni (ichki diametr bo'yicha) m^2 ;

$g - 9.81$ m/sek ga teng bo'lgan erkin tushish tezligi;

N – suvning metrlardagi bosimi;

t – vaqt- 24 soat, sekundlarda;

Quyidagi holatlarda:

6.3.1. "Iste'molchi"da suv o'lchash asbob va moslamalari yo'q bo'lgan holatlarda (yoki nosoz xolatda);

6.3.2. Suv o'lchash asbobi yoki moslamasi "Ta'minotchi"da ro'yhatdan o'tmagan taqdirda;

6.3.3. Ichimlik suvi bilan o'zboshimchalik bilan foydalanib, suv sepilganda, avtomashinalar yuvilganda;

6.3.4 Suv o'lchash asbobi, moslamasi ishdan chiqqan, singan, buzilgan holatda, sarflangan suv hajmi ushbu shartnoma 6 qismining

6.3bandida ko'rsatilganiga muvofiq, eng so'nggi tuzilgan dalolatnoma muddatidan yangi suv o'lchash asbobi o'rnatilib, (ro'yhatdan o'tkazilgan) kungacha hisoblanadi;

Suvni hisobga olish asbobi iste'molchining aybisiz nosoz bo'lgan taqdirda sarflangan suv miqdori oldingi uch hisob-kitob oyidagi o'rtacha sarf bo'yicha aniqlanadi. Hisob-kitobning bunday tartibi bir oydan ko'p qo'llanilishi mumkin emas. Agar suvni hisobga olish asbobi ko'rsatilgan muddat mobaynida o'rnatilmasa, sarflangan suv miqdori II-guruh iste'molchilari uchun Qoidaning 87-"b"-bandi bo'yicha hisob-kitob qilinadi;

6.3.5. "Iste'molchi"ning ichimlik suvi va kanalizatsiya tizimi kommunikatsiyalaridan suv isrof bo'lishi holatlari aniqlangan holatlarda;

6.3.6. "Ta'minotchi"ning suv o'lchash bo'g'inini diametiri kichikroq bo'lgan moslamaga alishtirish to'g'risidagi talabnomasi qondirilmagan, bajarilmagan holatlarda;

6.3.7 Suv o'lchash asbobining hisob-kitobini olib borish bo'g'inidagi qo'yilgan himoya qoplpmiga ruxsatsiz tegilish natijasida, ichimlik suv sof sarfini aniqlash imkoniyati chegaralanganda;

6.4. Ichimlik suvi va oqova suv kommunal tizimlariga (jumladan yong'indan saqlanish gidrantlari va xonadon quvurlariga) o'zboshimchalik bilan ulanib olingan va foydalanilgan holatlar aniqlanganda, "Ta'minotchi" tomonidan dalolatnoma tuziladi va shu tuzilgan dalolatnoma o'zboshimchalik bilan ulanib olgan shaxsning javobgarligi darajasini aniqlash va "Ta'minotchi"ga yetkazilgan zararni hisoblash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda:

-to'lov muddati, eng so'nggi tuzilgan dalolatnoma sanasidan o'zboshimchalik bilan ulanib olingan kun sanasigacha yoki yangi suv o'lchash asbobi o'rnatilib, ro'yhatdan o'tkazilgan kungacha, yoki o'zboshimchalik bilan ulanish uzib tashlangan kunga qadar hisobga olinadi;

-o'zboshimchalik bilan ulanib olingan sanadan bu haqda ma'lum bo'lgan sanagacha, agar "Ta'minotchi" balansdagi tarmoqlarga ulanish sodir etilgan bo'lsa, bu muddat da'vo arizasi yozilgan muddatdan oshmasligi zarau. Agar o'zboshimchalik bilan ulangan sanani topish, aniqlash mumkin bo'lmasa, bu muddat da'vo muddatiga teng deb olinadi;

6.5 Texnik shartlar 2 yil muddatga beriladi. Belgilangan muddat tugagach buyurtmachi (ob'ektni loyihalashtirish va qurishni boshlash uchun) loyiha muddatini cho'zdirishi yoki yangi texnik shartlarni olishi zarur.

Texnik shartlari mavjud bo'lmagan holda yoki muddati o'tgan holda, "Ta'minotchi" tomonidan suv uzatish xizmatlarini yakunlashga asos bo'ladi.

6.6. "Iste'molchi" kommunal suv ta'minoti va oqova suvni chiqarib yuborish tarmoqlariga ulanish sanasi haqidagi hujjatlarni taqdim etmagan holatlarda "Ta'minotchi" tomonidan, xokim qarori va kadastr hujjatlari va shu kabilar asosida, hujjat bilan tasdiqlangan ulanish sanasi bo'yicha hisob-kitob qilishga haqlidir.

6.7. Ishlatilgan ichimlik suvi va qabul qilingan oqova suv uchun to'lovlar, "Ta'minotchi" tomonidan taqdim etiladigan to'lov talabnomalari asosida ularga xizmat qiluvchi banklar orqali amalga oshiriladi. Bu to'lovlar "Iste'molchi" tomonidan 3 kunlik muddat ichida aktseptsiz tartibda amalga oshiriladi. To'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda, "Ta'minotchi" kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun 0.4 % penya yozadi va uning umumiy qiymati asosiy to'lovning 50%dan oshmasligi lozim.

6.8. "Iste'molchi" hisob raqami bo'lmagan taqdirda, to'lovlar bank bo'limlarining kassasi orqali, hisobot davridan keyingi

10 kun muddat ichida to'lanadi.

6.9. «Ta'minotchi» to'lovning har bir davri uchun, avvalgi oy to'lovining 100 % miqdorida oldindan to'lovlar (predoplata)ni belgilaydi va bu to'lov keingi oy hisobiga o'shiladi. Agar "Iste'molchi" ikki hafta muddat ichida to'lovni amalga oshirmasa, "Ta'minotchi" hech qanday ogohlantirishlarsiz ichimlik suvini yetkazib berishni yoki oqova suvlarni chiqarib yuborishni undirmagunga qadar to'xtatib qo'yish huquqiga ega. Bunday hollarda yong'indan saqlanish va sanitariya holatlari uchun javobgarlik to'liq "Iste'molchi" zimmasiga yuklatiladi. Suv ta'minoti va suv chiqarish tizimidan ilgari uzib qo'yilgan hollarda qayta ulashda II guruh iste'molchilaridan eng kam oylik ish haqining 10 (o'n) barobari miqdorida to'lov qayta ulashni amalga oshirgan tashkilot hisobiga mablag'larni o'tkazish orqali undiriladi;

Kanalizatsiya tizimiga ruxsat etilmagan yomg'ir va erkin qor suvlari oqizilayotgan ishlab chiqarish oqova suvlarini "Iste'molchi" lar tomonidan tashlash tartibi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevral kunida qabul qilingan 11 sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ishlab chiqarish oqova suvlarini qabul qilish qoidalari" hamda ifloslantiruvchi moddalarning O'zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining kommunal kanalizatsiya tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun "Iste'molchi"larga belgilangan tarifga nisbatan 3 (uch) barobar ortiriluvchi koeffitsient miqdor tartibida hisoblanadi.

6.10. Xisob-kitobning noto'g'ri qilinganligi (tariflarning noto'g'ri hisobiga olinganligi va shu kabi holatlar) to'g'risida "Iste'molchi" ga yoziladigan e'tiroznoma to'lov hujjati olingandan keyin 5 kun muddatda "Ta'minotchi"ga taqdim etilishi kerak. E'tiroznoma "Iste'molchi"ni to'lov xujjatida ko'rsatilgan summani to'liq va belgilangan muddatda to'lashdan ozod qilmaydi.

VII. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Taraflar o'rtasida shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizolar, kelishuv yo'li bilan hal qilinadi.

Agarda ikki tomonlama kelishuvga erishilmasa, nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Toshkent shahar tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

7.2. Ushbu shartnomada belgilangan holatlar yuzasidan nizo kelib chiqqan taqdirda, Qonunchilikda belgilangan tartibda hal qilinadi.

VIII. Fors – major

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch (fors major) holatlari (zilzila, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar muzkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Fors-major holati mavjud bo'lgan tomon 3 kun ichida boshqa tomonni fors-major xolati boshlangan muddatlarni ko'rsatgan holda yozma ravishda ogohlantirishi lozim.

8.3. Agar fors-major holatining shartnoma shartlarini bajarishga uch oydan ko'p muddat to'sqinlik qilsa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

IX. Shartnomaning amal qilish muddati

9.1 Shartnoma imzolanib, hududiy G'aznachilik bo'linmasidan ro'yhatdan (hisobdan) o'tkazilgandan so'ng kuchga kirib, 2022-yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

9.2 Shartnoma g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yilning 31 dekabrigacha amal qiladi.

X. Taraflarning yuridik manzili:

«TA'MINOTCHI»

Andijon suv ta'minoti MCHJ
Paxtaobod tumani bo'limi
X/R 2263 8000 0002 8536 9317
Ipoteka bank Andijon viloyati
filiali
MFO 00059
INN 200230760

Rahbar _____ A. Ataqo'ziyev

M.O' (F.I. Sh. imzo)



«ISTE'MOLCHI»

Paxtaobod tuman xalq ta'limi bo'limi
Manzil Kelajak ovozi ko'chasi
Tel: 711-19-27, faks _____
g'az/h-r 23402000300100001010
Bank Markaziy bank XQQM Toshkent shaxri
Bank kodi 00014 STIR 201122919
XHTUT 97600
Sh/x/r 100022860032327096100075012

Rahbar _____ A. Usmonov

M.O' (F.I. Sh. imzo)



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA Hujjatlarning qonun
Hujjatlari muvofiqligi to'g'risida huquqiy xulosa**

№ JI87575447

2022 yil 24 yanvar.

Paxtaobod tumani

1. Loyiha turi Shartnoma
2. Loyiha nomi "Xo'jalik shartnomasi"

Ushbu shartnoma Suv ta'minoti korxonasi, keyingi o'rinlarda "Ta'minotchi" deb yuritiladi. Nizom asosida faoliyat yurituvchi Andijon suv ta'minoti MCHJ Paxtaobod tuman filiali A.Ataqo'ziyev shaxsida, bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb yuritiluvchi Paxtaobod tuman xalq ta'limi bo'limi Nizom asosida ish olib boruvchi direktor ish olib boruvchi ikkinchi tomondan, quyidagilar haqida tuzildi:

Shartnoma predmeti

2022 yil uchun suv etkazish hajmi uchun tuzilgan shartnomaga muvofiq byudjet tashkilotlari (bundan buyon matinda II guruh iste'molchilari deb yuritiladi) uchun suv yetkazish narx bo'yicha 1 m3 1430 so'mni tashkil etadi:

1m3 ichimlik suv uchun 1200 so'm

Shu tariqa shartnomaning umumi yiqiyati **115.830** so'mni tashkil qildi. (bir yuz o'n besh ming sakkiz yuz o'ttiz) so'm.
Shartnoma bo'yicha taraflarning javobgarligi me'yori va nizolarni hal etish tartibi qonunchilik talablariga mos keladi.

Asos: O'z. Res. Andijon viloyati Hokimining 16.03.2019 yilgi 137-sonli qarori. Davlat xizmatlari yagona Reestrini tasdiqlash to'g'risida [O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019 yil 13 sentyabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3181]

Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot

Paxtaobod tuman Xalq ta'lim bo'limi tomonidan 21.01.2022

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Yuridik xizmat ko'rsatish
markaz bosh yuriskonsulti:**



M. Ismoilova.